

INKLYUZIVLIKNI ANGLASHDA OTA-ONALIK TAJRIBASINING ROLI: FARZAND MISOLIDA IJTIMOYIY-PEDAGOGIK YONDASHUV

Yudoshboyeva Iroda Nasim

GDPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi.

irodayuldashbayeva5@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19740915>

Annotatsiya. Ushbu maqolada inklyuziv ta'limning ahamiyati hamda uning amaliyotdagi o'rni haqida so'z yuritiladi. Muallif inklyuziv ta'lim mazmunini shaxsiy hayotiy tajribasi orqali yoritib beradi. Shuningdek, maqolada inklyuziv bolalar bilan ishlash jarayonida uchraydigan muammolar, pedagog va ota-onalarning roli ham tahlil qilinadi. Inklyuziv ta'limni rivojlantirish va bolalarga teng imkoniyat yaratish zarurligi haqida fikrlar bildiriladi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, imkoniyati cheklangan bolalar, maktabgacha ta'lim, pedagogik yondashuv, ota-ona mas'uliyati.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение инклюзивного образования и его роль в практике. Автор раскрывает содержание инклюзивного образования через собственный жизненный опыт. Также в статье анализируются проблемы, возникающие в процессе работы с детьми с особыми образовательными потребностями, а также роль педагогов и родителей. Подчеркивается необходимость развития инклюзивного образования и создания равных возможностей для всех детей.

Annotation. This article discusses the importance of inclusive education and its role in practice. The author explains the essence of inclusive education through personal life experience.

The article also analyzes the challenges faced while working with children with special educational needs and highlights the role of teachers and parents. The importance of developing inclusive education and creating equal opportunities for all children is emphasized.

Kirish: Bugungi kunda inklyuziv ta'lim ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatda teng huquqli bo'lishi va sifatli ta'lim olishini ta'minlashga xizmat qiladi. Men yosh talaba hamda yosh ona sifatida inklyuziv ta'limning mazmunini o'z hayotim orqali chuqurroq angladim. Aynan shu sababli "Inklyuzivlikni farzandim orqali tushundim" mavzusida ushbu maqolani yozishga qaror qildim.

Farzandimga shifokorlar tomonidan ikki tomonlama quloq atreziyasi tashxisi qo'yilgan. Bu holatda quloqning ichki qismi sog'lom bo'lsa-da, tashqi quloq yo'lining yopiq bo'lishi sababli eshitishda ma'lum qiyinchiliklar yuzaga keladi. Shu holat meni inklyuziv ta'limning mohiyati va ahamiyati haqida chuqurroq o'ylashga undadi.

Asosiy qism: Bugungi kunda inklyuziv ta'limni rivojlantirish masalasi davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ham imkoniyati cheklangan bolalarni ta'lim jarayoniga jalb etish va ularga teng sharoit yaratish bo'yicha bir qator qaror va hujjatlar qabul qilingan. Xususan, Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan hujjatlar asosida inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish, imkoniyati cheklangan bolalarni umumiy ta'lim muassasalarida o'qitish hamda ularga zarur sharoitlar yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan inklyuziv ta'limni joriy etish va rivojlantirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqilgan.

Xususan, 2020-yil 12-oktabrda qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining 638-son qarori inklyuziv ta'limni rivojlantirish va imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim olish uchun zarur sharoitlar yaratishga qaratilgan muhim hujjatlardan biri hisoblanadi. Mazkur qaror asosida ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularga teng ta'lim olish imkoniyatini yaratish hamda pedagoglarning inklyuziv ta'lim bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirishga katta e'tibor berilmoqda. Shu kabi islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, inklyuziv ta'limning haqiqiy mazmunini men farzandim orqali yanada chuqurroq angladim.

Farzandimdagi bu holatni biz tug'ruqxonada emas, uyga kelganimizdan keyin bildik.

Aslida tug'ilish jarayonida tekshiruvlar o'tkaziladi, deb o'ylagan edim, ammo shifokorlar bu holatni payqamagan ekan. Men atigi 21 yoshimda ona bo'lganman. Farzandimdagi holatni bilganimda juda qattiq tushkunlikka tushdim. O'sha paytda dunyo ko'zimga tor bo'lib ketgandek tuyuldi. Chunki hali aniq tashxis qo'yilmagani sababli ko'nglimda turli savollar paydo bo'lardi: "Farzandim gapira oladimi? Mening so'zlarimni eshitadimi? Bir kun kelib menga 'onajon' deydimi?" degan o'ylar ich-ichimni yemirib borardi. Hozir bu maqolani yozar ekanman, ko'zlarimga yosh keladi. Chunki men kabi holatga tushgan onalar juda ko'p. Biz farzandimiz hali bir oylikka ham to'lmaganida shifokorlarga murojaat qildik. U yerda bizga bu holatning davosi vaqt va sabr ekanligini aytishdi va 5 oyligida yana tekshiruvga olib kelishimizni tavsiya qilishdi.

Aynan shu sinovli davrlar menga inklyuziv ta'limning naqadar muhim ekanini chuqur anglatdi. Avvaliga farzandimdagi bunday tashxis faqatgina mening farzandimda bor deb o'ylardim. O'zimni juda yolg'iz his qilardim. Ammo Toshkent shahridagi shifoxonaga borganimizda bu fikrim o'zgardi. U yerda farzandim kabi o'xshash tashxisga ega bo'lgan ko'plab bolalar va ularning ota-onalarini ko'rdim. Shunda angladimki, bu sinov faqat bizning oilamizga emas, balki ko'plab oilalarga ham nasib etgan ekan. O'sha paytda men kabi tashvish va umid bilan yashayotgan onalar borligini ko'rib, o'zimga kuch va sabr topa boshladim. Biz Toshkentdagi shifoxonaga borganimizda, ota-onalar bilan gaplashar ekanman, hammasida bitta maqsad – farzandim gapira olishini ko'rish. Shifokorlar esa bizga "faqat kutish kerak, 5 yoshgacha sabr qilishingiz zarur" deyishdi. O'sha paytlarda men hech qayerda o'qimagan edim. Keyin texnikomga o'qishga topshirdim va Maktabgacha ta'lim yo'nalishini tanladim. Aslida, men ilgari bu sohaga qiziqmagan edim, lekin farzandim tufayli shu kasbga kirishga qaror qildim. Texnikomni ikki yil davomida o'qib bitirgach, suhbat orqali Guliston Davlat Pedagogika Institutiga 2-kursdan qabul qilindim. Shu yo'l orqali men nafaqat o'z kasbimni tanladim, balki farzandimga yaxshiroq yordam bera olish imkoniyatini ham topdim. Farzandimning holatini ko'rib, u bilan birga bo'lgan ota-onalarni ko'rgach, men angladimki, bu sinov faqat bizga emas, ko'plab oilalarga nasib etgan ekan. Har bir ota-ona farzandining kelajagi uchun bir xil umid va tashvish bilan yashaydi. Shu paytda men ham kuch va sabr topdim. Tarbiyachi sifatida ham men inklyuziv bolalarning jamiyatga qo'shilishida pedagoglar va ota-onaning roli naqadar muhimligini his qildim. Farzandim tufayli men o'z kasbimni nafaqat ish sifatida, balki hayotiy missiya sifatida qabul qiladigan bo'ldim. Men farzandim orqali inklyuziv ta'limning haqiqiy mazmunini yanada chuqurroq angladim: har bir bola, imkoniyati cheklangan bo'lsa ham, o'zini jamiyatda erkin his qilishi, gapira olishi va o'qishi huquqiga ega. Shu sababli, ota-onalar va pedagoglarning vazifasi – ularga bu imkoniyatni yaratishdir. Bu hayotiy tajribalar menga shuni ko'rsatdiki, inklyuziv ta'lim faqat nazariy tushuncha emas, balki hayotning o'zi bilan bog'liq, har bir bolaning haqiqiy ehtiyojini

qamrab oladigan jarayondir. Men institut tomonidan amaliyotga chiqdim. Amaliyot davomida farzandim kabi imkoniyati cheklangan bolalar sogʻlom bolalar bilan birga mashgʻulotlarda qatnashishini koʻrdim. Bu jarayonning maqsadi – inklyuziv bolalarni jamiyatdan ajratmaslik va ularni teng muhitda rivojlantirishdir. Sogʻlom bolalar bilan birga ishlash orqali inklyuziv bolalar oʻzini boshqalar bilan solishtirib, yakkalanib qolmasligi, oʻz nuqsonlaridan uyalmasligi va intilish ruhini oshirishi mumkin. Shuni taʼkidlash lozimki, Oʻzbekiston Prezidenti tomonidan qabul qilingan 638-son qaror aynan shunday inklyuziv muhit yaratish va farzandlarimizni teng sharoitda tarbiyalashga qaratilgan. Bu qaror orqali inklyuziv bolalar jamiyatga qoʻshilishi, pedagoglar va ota-onalar ularni qoʻllab-quvvatlashi mumkinligi taʼminlangan. Amaliyot davomida koʻrganlarim shuni koʻrsatdiki, inklyuziv bolalar va sogʻlom bolalarni birlashtirishda nafaqat ota-onaning, balki pedagogning ham roli muhim. Biroq baʼzi holatlarda ota-onalar farzandlarini bogʻchaga berishda belgilangan mezonlarga rioya qilmaydi. Shu sababli, imkoniyati cheklangan bolalar mashgʻulotlarda yetarli eʼtibor olmay qoladi. Men buni barcha bogʻchalar uchun emas, balki amaliyot davomida koʻrganlarim asosida yozayapman. Men ham pedagog sifatida farzandim orqali oʻrganganimni amaliyotda kuzatdim. Farzandim bilan birga boʻlgan ota-onalar, tarbiyachilar va boshqa mutaxassislar bilan suhbatlar menga inklyuziv bolalarning rivojlanishi uchun teng sharoit yaratish zarurligini yanada chuqurroq anglattirdi. Amaliyot davomida men inklyuziv bolalarni sogʻlom bolalar bilan birga mashgʻulotlarda koʻrdim, lekin koʻpincha farzandim kabi imkoniyati cheklangan bolalar yetarlicha eʼtibor olmay qoldi. Men tarbiyachilarni ayblamayman, chunki ularning ham yuklari koʻp va ish tartiblari belgilangan. Biroq ota-onalar farzandlarini bogʻchaga berishda belgilangan mezonlarga rioya qilmasa, inklyuziv bolalar mashgʻulotda qiynaladi. Masalan, mening farzandim eshitishi yengil darajada boʻlsa, u bogʻchaga tavsiya qilinadi. Ammo ogʻirroq darajadagi bolalar ham sogʻlom bolalar qatorida joylashtirilmogʻda. Shu sababli tarbiyachi ularga yetarli vaqt ajrata olmaydi va farzandlarimiz qoʻshimcha yordamga muhtoj boʻladi. Men “inklyuzivlikni farzandim orqali oʻrgandim” deb aytishimning sababi shundaki, farzandimdagi nuqson tufayli bu sohaga juda katta qiziqish bilan qaray boshladim. Shu sababli men koʻplab izlanishlar olib bordim, hatto Amerika olimlari tomonidan yozilgan kitoblarni ham oʻqib chiqdim.

Bu izlanishlarimning asosiy maqsadi – farzandim va shunga oʻxshash bolalar uchun toʻgʻri yondashuvni topish edi.

Amaliyotga borganimda esa inklyuziv bolalar bilan ishlash jarayoni men oʻylagandek emasligini koʻrdim. Baʼzi hollarda bunday bolalar alohida ajratib qoʻyilgan edi. Balki bu barcha bogʻchalarda shunday emasdir, ammo men amaliyot oʻtgan joyimda shunday holatni kuzatdim.

Mashgʻulotlar davomida ayrim inklyuziv bolalar yetarli darajada jalb etilmayotgandek tuyuldi.

Shunda menda bir savol paydo boʻldi: inklyuziv bolalar mashgʻulotga qiziqmaydimi yoki ularga pedagogik yondashuv yetarli emasmi? Shu savolga javob topish uchun men ulardan biri bilan sodda va tushunarli usulda individual mashgʻulot oʻtkazishga harakat qildim.

Natija esa meni juda quvontirdi. Bola aytilgan topshiriqlarni bajarishga harakat qila boshladi.

To'g'ri, u boshqa bolalarga qaraganda tez emas edi, ammo asta-sekin bo'lsa ham topshiriqlarni bajarayotganini ko'rdim. Bu esa menga shuni anglatdiki, agar inklyuziv bolalarga to'g'ri yondashuv va sabr bilan ishlansa, ular ham mashg'ulotlarda faol qatnasha oladi.

Shuni alohida ta'kidlashni istardimki, men bu fikrlarim bilan tarbiyachilarni ayblamoqchi emasman. Amaliyot davomida tarbiyachilar bilan suhbatlashganimda ular ham imkon qadar harakat qilishlarini aytishdi.

Biroq guruhdagi bolalar sonining ko'pligi sababli inklyuziv bolalar bilan individual ishlashga doimo vaqt yetmasligini ham ta'kidlashdi. Ba'zi tarbiyachilar yana shunday fikrni bildirishdiki, inklyuziv bolalar bilan ishlash uchun qo'shimcha ustama to'lovlar ham hamma holatda berilavermaydi. Aslida esa davlat tomonidan inklyuziv bolalar bilan ishlaydigan pedagoglar uchun ma'lum foizda ustama belgilangan. Suhbat davomida yana bir muhim masala ma'lum bo'ldi. Ba'zi ota-onalar farzandlarini tibbiy ko'rikdan o'tkazishda ularning muammolarini yashirib, sog'lom deb rasmiylashtirib olib kelishlari mumkin ekan. Shu sababli inklyuziv bola sifatida ro'yxatga olinmaydi va pedagoglarga ham tegishli qo'shimcha sharoitlar yaratilmaydi.

Shunda men o'ylab qoldim: bu holatda faqat pedagoglarni ayblash to'g'ri emas, balki ota-onalarning ham mas'uliyati bor. Chunki ba'zan ota-onalar farzandining nuqsoni borligini tan olishdan tortinadi. Men ham ona sifatida bunday his-tuyg'ularni tushunaman. Ba'zi paytlarda farzandimga boshqalar achinish bilan qarashidan cho'chib, o'zim ham tortinib qolgan vaqtlarim bo'lgan. Balki boshqa ota-onalarda ham shunday hislar mavjuddir. Ammo aslida farzandimizdagi muammoni yashirish emas, balki uni to'g'ri qabul qilib, kerakli yordamni olish muhimdir. Faqat shunda bolalarimiz uchun haqiqiy inklyuziv muhit yaratiladi. Shuningdek, ota-onalar ham farzandida nuqson borligini bilgan paytda tushkunlikka tushib qolmasdan, aksincha ko'proq izlanishi va o'rganishi kerak deb o'ylayman.

Albatta, har bir ota-onaning imkoniyati turlicha bo'lishi mumkin. Men o'qish imkoniyatiga ega bo'lib, bu sohada bilim olishni boshladim va izlanishda davom etyapman. Hozirgi kunda raqamlashtirish davrida yashayapmiz. Ko'plab ma'lumotlarni uyda o'tirgan holda ham telefon yoki internet orqali topish mumkin. To'g'ri, hozir Inklyuziv ta'lim bizning mamlakatimizda endigina rivojlanib bormoqda, kerakli materiallar ham ba'zan yetarli emas. Ammo shunga qaramay, ota-onalar farzandining kelajagi uchun imkon qadar izlanishi va harakat qilishi muhimdir. Men ona sifatida shuni his qildimki, farzandimiz uchun biz kuchli bo'lishimiz kerak.

Tushkunlikka tushib qolmasdan, ularning rivojlanishi, kelajagi va jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun harakat qilishimiz zarur. Inklyuziv muhit faqat imkoniyati cheklangan bolalar uchun emas, balki sog'lom bolalar uchun ham muhimdir. Chunki ular bir-biriga yordam berishni, sabrli bo'lishni va boshqalarni tushunishni o'rganadi.

Kelajakda pedagog sifatida inklyuziv bolalar bilan yanada ko'proq ishlashni va ularning rivojlanishiga o'z hissamni qo'shishni istayman. Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'lim har bir bolaning jamiyatda o'z o'rnini topishi va teng imkoniyatlarga ega bo'lishi uchun muhim ahamiyatga ega. Farzandim orqali bu tushunchaning naqadar muhimligini yanada chuqurroq angladim. Shu jarayonda men nafaqat ona sifatida, balki bo'lajak pedagog sifatida ham ko'p narsalarni o'rgandim.

Inklyuziv bolalarning rivojlanishi uchun pedagoglar, ota-onalar va jamiyat birgalikda harakat qilishi zarur. Har bir bola mehr, e'tibor va to'g'ri yondashuv orqali o'z imkoniyatlarini namoyon eta oladi.

Shu sababli inklyuziv ta'limni rivojlantirish, pedagoglarning bilim va malakasini oshirish hamda ota-onalarning bu boradagi mas'uliyatini kuchaytirish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Graham L.J. *Inclusive Education for the 21st Century: Theory, Policy and Practice*. – London: Routledge, 2020.
2. Booth T., Ainscow M. *Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools*. – Bristol: CSIE, 2011.
3. Loreman T., Deppeler J., Harvey D. *Inclusive Education: Supporting Diversity in the Classroom*. – London: Routledge, 2010.
4. Florian L. *The SAGE Handbook of Special Education*. – London: Sage Publications, 2013.
5. Mittler P. *Working Towards Inclusive Education*. – London: David Fulton Publishers, 2000.
6. Armstrong D., Armstrong A., Spandagou I. *Inclusive Education: International Policy and Practice*. – London: Sage Publications, 2011.
7. Friend M. *Special Education: Contemporary Perspectives for School Professionals*. – Boston: Pearson Education, 2018.
8. Thomas G., Loxley A. *Deconstructing Special Education and Constructing Inclusion*. – Maidenhead: Open University Press, 2007.
9. Slee R. *The Irregular School: Exclusion, Schooling and Inclusive Education*. – London: Routledge, 2011.
10. Salend S. *Creating Inclusive Classrooms: Effective and Reflective Practices*. – Boston: Pearson, 2016.
11. Muminova L.R. *Inklyuziv ta'lim asoslari*. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
12. Shomaxmudova R.Sh. *Maxsus pedagogika*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
13. Nishonova Z.T. *Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim*. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.
14. Raximov A.K. *Inklyuziv ta'lim metodikasi*. – Toshkent: Innovatsiya, 2021.
15. Yuldashev J.G. *Pedagogika nazariyasi va tarixi*. – Toshkent: O'qituvchi, 2017.
16. Turaeva N.M. *Inklyuziv ta'limda pedagogik yondashuvlar*. – Toshkent, 2020.
17. Mamadjanov M.M. *Maxsus ta'lim pedagogikasi*. – Toshkent: Fan, 2016.
18. Karimova V.M. *Pedagogika asoslari*. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
19. UNESCO. *Guidelines for Inclusion: Ensuring Access to Education for All*. – Paris: UNESCO, 2005.
20. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. *Inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi*. – Toshkent, 2020.